

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

5111600- Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi- umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq fanlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rgatish bo'yicha o'qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

5111600– Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi

4.1 Bakalavrning kasbiy faoliyat sohasi

5111600– Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi– umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq fanlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rgatish bo'yicha o'qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

4.2 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati obyektlari

5111600– Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi ta'lim yo'nalishibakalavrlarning **kasbiy faoliyati obyektlari** – umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, o'quvchilar, o'quv-tarbiya jarayoni, o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlar jarayonidir.

4.3 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari

5111600– Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr o'z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlari:

o'qituvchilik: akademik litseylar kollej, umumta'lim maktablarida milliy g'oya huquq asoslari fani o'qituvchisi;

tarbiyachilik: ma'naviy va ma'rifiy ishlar tashkilotchisi, maktabdan tashqari muassasalarda faoliyat;

o'quv-metodik: ushbu yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist vazifalarini bajarishi mumkin.

- *ilmiy-tadqiqot.*

Bakalavr tayyorlanadigan kasbiy faoliyatning muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim tizimi tomonidan aniqlanadi.

4.4 Bakalavrlar kasbiy faoliyatining vazifalari

5111600– Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr ta'lim dasturini o'zlashtirish natijasida kasbiy tayyorgarlikning asosiy turlari va maxsus tayyorgarligiga mos quyidagi kasbiy vazifalarni yechishi kerak:

- **o'qituvchilik:** umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariida milliy g'oya, huquq asoslari, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rgatish bo'yicha o'qituvchisi bo'lib ishlash;

- **tarbiyachi-tashkilotchi;** umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariidan tashqari muassasalarda tarbiyachi bo'lib ishlash

- **ilmiy-tadqiqot** muassasalarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash va boshqalar.

-bolalar muassasalarida huquqshunos;

-**o'quv-metodik.** mos ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash